IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI YARATISHDA DAVLAT VA JAMIYAT HAMKORLIGI

Qadirova Ulfatxon Mamataliyevna

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Qirg'iz tili ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi

qodirovaulfatxon69@gmail.com 99877-064-18-69

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20356974

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yosh avlodning aqliy ,intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish masalalari xususida fikr bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, islohotlar, tashkilot, yosh avlod, aqliy intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyat, zamonaviy yondashuvlar.

Abstrakt : The article discusses the reforms being implemented in our country to further improve and develop the education system, as well as issues related to enhancing measures aimed at increasing the mental, intellectual, aesthetic, physical, and spiritual potential of the younger generation.

Keywords: education system, reforms, organization, younger generation, mental and intellectual potential, aesthetic, physical, spiritual potential, modern approaches.

Аннотация В статье излагаются мнения о реформах, проводимых в нашей стране по дальнейшему совершенствованию и развитию системы образования, а также о вопросах улучшения мер, направленных на повышение умственного, интеллектуального, эстетического, физического и духовного потенциала подрастающего поколения.

Ключевые слова: система образования, реформы, организация, молодое поколение, умственный и интеллектуальный потенциал, эстетический, физический, духовный потенциал, современные подходы.

Kirish.Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q.

SH.M.Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.So'nggi yillarda ta'lim tashkilotlarida o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy talablar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yangi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni nashr qilish, ularni tajriba-sinovdan o'tkazish hamda ekspertiza qilishni tashkillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek, biz asosiy maqsadimizni yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun barcha zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishga qaratmog'imiz darkor. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, har tomonlama yetuk va barkamol avlod tarbiyasini to'g'ri tashkil etish va zamonaviy, huquqiy hamda ijtimoiy bilimlarni egallashlariga pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muhitni yaratib bera olish masalalari haqida talabalarga har tomonlama bilimlar berish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim jamiyat taraqqiyotining

asosiy omili bo‘lib, iqtisodiy o‘sish, ilm-fan rivoji va inson kapitalining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimini yaratishda nafaqat davlat organlari, balki jamiyatning barcha qatlamlari faol ishtirok etishi zarur. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ta’lim tashkilotlarida yosh avlodning aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma’naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.Bu borada pedagog rahbar–jamiyatning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qo’ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisiga aylanishi muqarrar.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida ta’limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta’lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo’lgan muammo hisoblanadi.Shu jihatdan olganda, ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlar, boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda rahbarlik layoqatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda ta’lim tashkilotlari rahbar xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo’lish talab etiladi.

O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ta’lim tashkilotlarining oldiga - yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo’ydi. Bu esa hozirgi vaqtda ta’lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga ta’limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o’zida mujassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi –tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma’nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki insonning ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Insonning hayoti turli bosqichlardan o‘tadi. Bular orasida eng ahamiyatlisi yoshlik bosqichidir. Bu davr o‘ta nozik davr bo‘lib, insonning quvvatga to‘layotgan, hayotning turli so‘qmoqlaridan o‘tib borayotgan davr hamdir. Mana shu davrda unga oilada juda katta e’tibor ko‘rsatish, ota-ona, ustozlar, ta’lim muassasalarining hayot chorrahalarida o‘zining munosib o‘rnini bilib olishi, ma’naviy komil bo‘lib yetishishi, atrofdagi insonlarga munosabatini belgilab olishida ko‘makchi bo‘lishlari lozim. Zero, kelajakda odob-axloq, ilm-ma’rifat, halollik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarning egasi bo‘lish mana shu kichik jamiyat bo‘lgan – oila va bilim dargohlaridan boshlanadi. Farzandlar millatning kelajagi bo‘lgani uchun ham, ularning tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berilishi lozim. Insonning kelajakda qanday shaxs bo‘lib yetishishi yoshlik davridan bilina boshlaydi. Yoshligida undagi shakllangan sifatlar butun umri davomida hamroh bo‘ladi. Mana shu sababdan ham jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo‘lishlari uchun harakat qilinadi.

Davlat ta’lim tizimini boshqaruvchi asosiy subyekt sifatida ta’lim sohasida qonunchilik bazasini yaratish, ta’lim standartlarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarini moliyalashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalarni amalga oshiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim qamrovining

kengayishi, yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi hamda raqamli ta’lim platformalarining rivojlanishi davlatning ushbu sohaga bo‘lgan e’tiboridan dalolat beradi. Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, Ta‘lim O‘zbekiston xalqi uchun yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, uning qobiliyati uzluksiz rivojlanadi, kattalar tajribasidan oziqlanib voyaga yetadi. Pedagogning bilimi, mahorati qizg‘in mehnati barkamol avlodni tarbiyalashga, ularda faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi hislatlarini va ma‘naviy ongini shakllantirishga qaratilgan. Aynan bugun tarbiyachi-pedagoglaning mustaqil izlanishi va o`z ustida tinimsiz ishlashi kechiktirib bo`lmaydigan talablardan biri ekanligi biz uchun a‘yon. Respublikamizda barkamol avlod kamoloti, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, orzu-umidlarini ro’yobga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.Yoshlarga oid masalalarda, zamon talablari asosida yangicha mexanizmlarni tadqiq etish, xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalarini muntazam o’rganib borish va O’zbekiston sharoitiga mos, milliy xususiyatlarimizga javob beradigan metodlarni tadbiq etish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Jamiyat ta’lim tizimining faol ishtirokchisi sifatida ta’lim sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa: ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati,mahalla institutining yoshlar bilan ishlashi, nodavlat ta’lim muassasalarining faoliyati, xususiy sektorning investitsiyalari shuningdek jamoatchilik nazorati ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda “davlat–jamiyat–ta’lim” hamkorligi modeli muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Masalan, Finlandiya va Janubiy Koreya tajribasida ota-onalar hamda mahalliy hamjamiyatlarning maktab boshqaruvidagi faol ishtiroki yuqori natijalarni ta’minlagan.

Bu borada Andijon davlat pedagogika institutida ham juda katta samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Institutut rektori B.Rasulov rahbarligida chet el hamda qo’shni davlat oliygohlarining ustoz va talabalari bilan o’zaro do’stona aloqalar tashkillanib, metod almashtirish borasida ham turli uchrashuv va tadbirlar yo’lga qo’yilgan. Uchrashuvlar jarayonida har ikki oliygoh tomonidan o’zlarining ta’lim muassasalari, hamkorlik qilish mumkin bo’lgan yo’nalishlari va o’quv jarayonlari haqida mailumotlar beriladi. Talabalar almashinuvi, turli ta’lim va madaniy dasturlar, yozgi va qishki o’quv jarayonini hamkorlikda tashkil etish kabi masalalar ko’rib chiqiladi. Asosiy maqsad Oliy ta’lim muassasalari bilan yaqin aloqalarni o’rnatish, ikki tomonlama manfaatli aloqalarni yo,lga qo’yishdan iborat. Shu bilan birga, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o’z vaqtida zarur ixtisosliklar bo’yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta’lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo’yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalar to’liq yechimini topmoqda.

Andijon davlat pedagogika institutida talaba yoshlarga ilm olishlari uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo’lib, ularga yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo’lgan professor o’qituvchilar zamon talablari asosida yangicha mexanizmlarni, xorijiy davlatlarning ilg’or tajribalarini o’rganib darslarda zamonaviy texnika vositalarini qo’llagan holda ta’lim – tarbiya bermoqdalar. Ularning oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri –erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o’z haq-huquqlarini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo’layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un holda quradigan erkin, har jihatdan barkamol

insonlarni tarbiyalash lozim. Shuning uchun ham barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va ma'suliyatni talab qiladi.

Demak, mehnat inson faoliyatining asosiy shakli, kishi hayotining mazmuni, har bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosi hisoblanganidek, mehnat qilishdan ya'ni yoshlar ilm olishdan, pedagog-tarbiyachilar esa yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdan charchamaylik. Mustaqil O'zbekistonimizning yanada ravnaq topishi uchun ijtimoiy taraqqiyotning negizi bo'lgan ish faoliyatimiz faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina bo'lib qolmay, balki xalqqa xizmat qilish, vatan uchun qayg'urish, shaxsiy manfaatdan xalq manfaatini ustun qo'yishning asosi hamdir.

Xulosa.Yosh avlodga bilim berish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan ta'lim –tarbiya berish, komil inson shaxsini yetuklikka yo'naltirish oliy maqsadimiz ekanligini bilishimiz lozim. Binobarin, O'zbekistonda ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli shaxs manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat hamkorligini yo'lga qo'yishda ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, bular jamiyatning ta'lim jarayonidagi faolligi yetarli emasligi, moddiy-texnik bazaning ayrim hududlarda sustligi, pedagog kadrlar malakasidagi farqlar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi hisoblanadi.Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun esa ta'limga investitsiyalarni ko'paytirish, pedagoglarning malakasini muntazam oshirish,jamoatchilik bilan ochiq muloqotni kuchaytirish shu bilan birga raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimini yaratishda davlat va jamiyat hamkorligi muhim strategik omil hisoblanadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish faqat davlatning sa'y-harakatlari bilangina emas, balki jamiyatning faol ishtiroki orqali ham ta'minlanadi. Shu bois davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ota-onalar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni / O'RQ-637-son 24.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- son Farmoni bilan tasdiqlangan " O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
3. Avloni A. "Turkiy guliston yoxud axloq".
4. Mirziyoev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz." – Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.
5. Esonova M.A "Maktabgacha pedagogika"- Toshkent:"ILM VA FAN" nashriyoti, 2023.276 bet.
6. https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar